

113. Kuboidning hajmi

Yondosh mavzu:
suvning xossalari.

Formula, to'g'ri burchakli
parallelepiped, kuboid.



1. Misollarni hisoblang. Bu kubiklar qanday materiallardan yasalganini toping.

O' $34 : 17$

A $240 : 12$

I $35 \cdot 2 : 10$

K $18000 : 300$

E $220 : (5 \cdot 2)$

T $4900 : 70$

X $80 - 24$




M $5410 : 541$

P $600 : 20 : 5$

D $50 \cdot 2$

K $1000 - 997$

R $27 + 34$



6, 2, 60, 20, 60





100, 20, 61, 20, 56, 70

70, 22, 10, 7, 61

Bu kubiklarning o'lchami bir xil. Nima uchun ulardan biri suvga cho'kdi, qolgan ikkitasi esa cho'kmadi?



2. Ushbu hajmli shakllarning nomini eslang.




Yordam uchun so'zlar: konus, kub, kuboid, piramida, prizma, to'g'ri burchakli parallelepiped, silindr.

Bu shakllarni ikki guruhga bo'ling. Har bir guruhdagi shakllar qanday umumiy xususiyatga ega?




3. Rasmga qarab savollarga javob bering.
- Katta kubning pastki qatoriga nechta oq kub joylashtirilgan?
 - Katta kubning ichiga jami nechta kub sig'adi?




To'g'ri burchakli parallelepiped (kuboid)ning hajmi bu shaklning ichiga necha birlik o'lchovlar, masalan, kublar joylashishini ko'rsatadi.

Kuboid hajmining formulasi:



$$V = a \cdot b \cdot c$$



$$V = S \cdot h$$



4. To'g'ri burchakli parallelepipedning bo'yi 14 cm, eni undan 4 marta kichik. Balandligi esa bo'yidan 90 mm kichik. To'g'ri burchakli parallelepipedning hajmini toping.



5. Akvariumning bo'yi 80 cm, eni 5 dm, balandligi esa 700 mm. Unga nechta litr suv sig'adi? Baliqlar akvariumda o'zlarini qulay his qilishlari uchun har bir baliqqa 7 litrdan suv to'g'ri kelishi kerak. Bu akvariumga eng ko'pi bilan nechta baliqni joylashtirish mumkin?



6. Kub shaklidagi bochkada 1340 stakan, silindr shaklidagi bochkada esa 67 stakan suv bor. Kub shaklidagi bochkaning hajmi silindr shaklidagi bochkaning hajmidan nechta marta katta?

113. Kuboidning hajmi



7. Agar x eng katta ikki xonali son, y esa eng kichik uch xonali son bo'lsa, ushbu ifodaning qiymatini toping:

$$562 - 2772 : x + y \cdot (19 + 2 \cdot 17)$$



8. Okeanda ulkan muz bo'laklari – aysberglar suzib yuradi. Biz suv yuzasida aysberglarning faqat kichik bir qismini ko'ramiz, ularning katta qismi esa suv ostida yashiringan. Shuning uchun aysberglar kemalar o'tishi uchun xavflidir.


Tenglamani yeching va aysbergning ko'rinadigan qismi balandligini aniqlang.



9. Hayvonot bog'laridan birida kichkina va katta akvarium o'rnatildi. Katta akvarium o'lchami kichkina akvarium o'lchamidan 100 marta katta. Agar kichkina akvariumga aynan 1 litr suv sig'sa, katta akvariumga necha litr suv sig'adi?



10. Rasmdagi ma'lumotlardan foydalanib, to'g'ri burchakli parallelepipedning hajmini toping.



11. Ushbu idishlardagi suvning umumiy hajmini toping.



865 ml



5 marta kam



320 ml ko'p